Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish


Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari……458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash……467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)……475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash……484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli……493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari……501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг……546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish……554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish……563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari……574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari……582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish……590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini……602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish……613

BANKLARDA LIKVIDLIK KO‘RSATKICHLARINI BUXGALTERIYA HISOBI MA’LUMOTLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH

SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Andijon davlat texnika instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: sadikovzafarbek155@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-2369-0736

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Bank aktivlari va majburiyatlarining tarkibi, ularning muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlik, likvid aktivlarning yetarliligi hamda pul oqimlarini boshqarish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar ma’lumotlaridan foydalanish orqali banklarning qisqa va uzoq muddatli to‘lov qobiliyatini baholash, likvidlik risklarini aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: tijorat banklari, likvidlik, buxgalteriya hisobi, likvid aktivlar, bank majburiyatlari, pul oqimlari, moliyaviy hisobot, likvidlik riski, to‘lov qobiliyati, moliyaviy tahlil.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты анализа ликвидности коммерческих банков на основе данных бухгалтерского учета. Изучаются структура активов и обязательств банков, соответствие сроков их погашения, достаточность ликвидных активов и управление денежными потоками. Особое внимание уделяется оценке платежеспособности банков на краткосрочную и долгосрочную перспективу, выявлению рисков ликвидности и разработке рекомендаций по их снижению на основе данных финансовой отчетности.
Ключевые слова: коммерческие банки, ликвидность, бухгалтерский учет, ликвидные активы, банковские обязательства, денежные потоки, финансовая отчетность, риск ликвидности, платежеспособность, финансовый анализ.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of analyzing commercial banks’ liquidity using accounting data. It considers the structure of bank assets and liabilities, maturity matching, the adequacy of liquid assets, and cash flow management. Particular attention is paid to assessing banks’ short-term and long-term payment capacity, identifying liquidity risks, and developing recommendations to mitigate them through the effective use of financial reporting data.
Keywords: commercial banks, liquidity, accounting, liquid assets, bank liabilities, cash flows, financial reporting, liquidity risk, solvency, financial analysis.

KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda likvidlikni boshqarish muhim o‘rin tutadi. Banklar iqtisodiyotdagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish, ularni kreditlar va boshqa moliyaviy aktivlarga yo‘naltirish orqali moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi. Bunda jalb qilingan mablag‘lar, ayniqsa talab qilib olinguncha depozitlar va qisqa muddatli majburiyatlar bilan uzoq muddatli kreditlar o‘rtasidagi muddat tafovuti bankning likvidlik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro hisob-kitoblar banki huzuridagi Bazel qo‘mitasi likvidlikni bankning o‘z majburiyatlarini muddati kelganda bajarish va aktivlar hajmini moliyalashtirish imkoniyati bilan bog‘laydi. Shu sababli likvidlikni boshqarish faqat pul mablag‘lari qoldig‘ini nazorat qilish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

bilan cheklanmay, kelgusidagi pul tushumlari va to‘lovlarni ham hisobga olishni talab etadi [1].

Raqamli bank xizmatlari kengayib borayotgan sharoitda mijozlarning pul mablag‘larini tezkor yechib olishi, elektron to‘lovlar hajmining ortishi va moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi likvidlikni muntazam kuzatish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday vaziyatda buxgalteriya hisobi bankning moliyaviy holati to‘g‘risidagi asosiy axborot manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Buxgalteriya balansidagi pul mablag‘lari, Markaziy bankdagi mablag‘lar, boshqa banklardagi hisobvaraqlar, kredit qo‘yilmalari, depozitlar va boshqa majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar likvidlikni baholash uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi. Biroq mazkur ko‘rsatkichlarni alohida-alohida ko‘rib chiqish yetarli emas, chunki bankning balansida katta miqdorda aktivlar mavjud bo‘lishi ularning barchasi qisqa muddatda pulga aylantirilishini anglatmaydi.

Moliyaviy hisobotlarning likvidlik tahlilidagi ahamiyati xalqaro standartlarda ham e’tirof etilgan. Xususan, IFRS 7 moliyaviy instrumentlardan kelib chiqadigan risklar, jumladan, likvidlik riski, uning xususiyati, miqdoriy ko‘rsatkichlari va boshqarish usullari haqida axborot ochib berilishini nazarda tutadi [2].

Bu talab banklarning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishda nafaqat joriy davrdagi aktiv va majburiyatlar miqdorini, balki majburiyatlarning qachon bajarilishi lozimligini, moliyalashtirish manbalarining barqarorligini hamda pul oqimlariga ta’sir etuvchi ehtimoliy omillarni o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

Bazel III talablarida qisqa muddatli likvidlikni baholash uchun likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio — LCR), barqaror moliyalashtirish holatini baholash uchun esa sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (Net Stable Funding Ratio — NSFR) kabi yondashuvlar belgilangan. Ushbu ko‘rsatkichlar bankning yuqori sifatli likvid aktivlari, kutilayotgan pul chiqimlari va barqaror moliyalashtirish manbalari o‘rtasidagi munosabatni baholashga xizmat qiladi [3; 4].

Shundan kelib chiqib, buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini likvidlikni prudensial baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirish bankning moliyaviy holati to‘g‘risida yanada to‘liq xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, buxgalteriya hisobida shakllanadigan ma’lumotlardan tizimli foydalanish orqali bank likvidligining joriy holatini baholash, aktiv va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘lov qiyinchiliklarining oldini olish mumkin. Shu bilan birga, tahlil natijalari bank resurslarini joylashtirish, depozit siyosatini takomillashtirish va likvid aktivlarning maqbul darajasini belgilash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini asoslashga yordam beradi.

Maqolaning maqsadi tijorat banklarida likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslarini yoritish hamda likvidlikni baholash va boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bank aktivlari va majburiyatlari tarkibini o‘rganish, likvidlikka

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash va likvidlik risklarini kamaytirish yo'llarini asoslash vazifalari belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank likvidligini boshqarish va uning ko'rsatkichlarini tahlil qilish masalalari xalqaro moliyaviy tashkilotlar, bank nazorati organlari hamda moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiquvchi institutlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish likvidlikni faqat buxgalteriya balansidagi pul mablag'lari bilan emas, balki aktivlar sifati, majburiyatlar muddati, moliyalashtirish manbalari va kutilayotgan pul oqimlari bilan birgalikda baholash zarurligini ko'rsatadi.

Bazel bank nazorati qo'mitasining "Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision" nomli hujjatida bank likvidligini boshqarishning asosiy tamoyillari bayon qilingan. Mazkur hujjatda bankning yetarli likvid aktivlarga ega bo'lishi, pul oqimlarini turli vaqt oralig'ida prognoz qilishi, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashi va stress-testlarni muntazam o'tkazishi zarurligi ta'kidlangan [1].

Ushbu yondashuv buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki balansdagi aktivlar va majburiyatlar haqidagi ma'lumotlar bankning mavjud moliyaviy holatini ko'rsatsa, pul oqimlari prognozi kelajakdagi to'lov ehtiyojlarini baholash imkonini beradi.

IFRS Foundation tomonidan ishlab chiqilgan IFRS 7 — "Financial Instruments: Disclosures" standarti moliyaviy instrumentlardan kelib chiqadigan risklar, jumladan, likvidlik riski haqida axborot taqdim etish masalalarini qamrab oladi. Standartda risklarning yuzaga kelish manbalari, ularni boshqarish siyosati va jarayonlari, shuningdek, moliyaviy majburiyatlar bo'yicha muddatlar tahlilini ochib berish muhimligi belgilangan [2].

Mazkur talablar bank likvidligini tahlil qilishda moliyaviy hisobotlarning izohlarini ham o'rganish zarurligini anglatadi. Chunki buxgalteriya balansidagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar majburiyatlarning qachon bajarilishi kerakligi yoki pul mablag'lari chiqimining qaysi davrda yuqori bo'lishi mumkinligi haqida har doim ham yetarli tasavvur bermaydi.

Bazel qo'mitasining Basel III doirasidagi "Liquidity Coverage Ratio" standarti qisqa muddatli likvidlikni baholashga qaratilgan. Ushbu yondashuv bankning yuqori sifatli likvid aktivlari kutilayotgan sof pul chiqimlarini qoplash imkoniyatini baholashga xizmat qiladi [3].

Uning amaliy ahamiyati shundaki, bankdagi pul mablag'lari va tezda realizatsiya qilinishi mumkin bo'lgan aktivlar hajmi qisqa muddatli majburiyatlar bilan o'zaro taqqoslanadi. Biroq bu ko'rsatkichni hisoblashda aktivlarning likvidlik talablariga muvofiqligi, ularning qiymatiga qo'llanadigan chegirmalar hamda stress sharoitidagi pul oqimlari hisobga olinishi lozim.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Bazel qo‘mitasining “Basel III: The Net Stable Funding Ratio” hujjatida esa banklarning uzoqroq muddatli moliyalashtirish barqarorligini ta’minlash masalasi yoritilgan. NSFR yondashuvi aktivlar tarkibi va balansdan tashqari faoliyat bilan muvofiq barqaror moliyalashtirish manbalarini saqlashga qaratilgan [4].

Mazkur yondashuv bankning qisqa muddatli mablag‘larga haddan tashqari tayanishini cheklash hamda uzoq muddatli aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘rganilgan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalqaro metodologiyalarda bank likvidligini baholash uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda amalga oshiriladi: mavjud likvid aktivlar yetarliligi, pul tushumlari va chiqimlarining muddatlar bo‘yicha muvofiqligi hamda moliyalashtirish manbalarining barqarorligi. Ushbu maqolaning yondashuvi mazkur yo‘nalishlarni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan bog‘lashga asoslanadi. Bunda balans, moliyaviy hisobotlarga izohlar, pul oqimlari haqidagi axborot va muddatlar bo‘yicha taqsimlangan aktiv-majburiyatlar ma’lumotlari yagona tahliliy tizim sifatida ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklari likvidligini baholash uchun tizimli yondashuv, taqqoslash, guruhlash va moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida likvid aktivlar, qisqa muddatli majburiyatlar hamda moliyalashtirish manbalarining tarkibi o‘rganiladi. Shuningdek, aktiv va majburiyatlarning muddatlari bo‘yicha muvofiqligi tahlil qilinib, likvidlikka ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi. Xalqaro likvidlik ko‘rsatkichlari bankning joriy moliyaviy holatini baholash uchun qo‘shimcha tahliliy mezon sifatida qo‘llanadi. Tadqiqot natijalari asosida likvidlik risklarini kamaytirish va buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank likvidligini tahlil qilish, avvalo, buxgalteriya hisobida shakllanadigan ma’lumotlarning mazmuni va ishonchliligini o‘rganishdan boshlanadi. Buxgalteriya hisobi bankning muayyan sanadagi moliyaviy holatini aks ettirib, pul mablag‘lari, boshqa likvid aktivlar, kredit qo‘yilmalari, depozitlar, jalb qilingan kreditlar va boshqa majburiyatlar to‘g‘risida axborot beradi. Ushbu ma’lumotlar bankning mavjud moliyaviy resurslari va ularning qaysi qismi joriy to‘lovlarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkinligini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi.

Shu bilan birga, balansdagi aktivlarning umumiy hajmi bank likvidligining bevosita o‘lchovi bo‘la olmaydi. Masalan, kredit portfelining ko‘payishi bank aktivlari hajmini oshirishi mumkin, ammo berilgan kreditlarning katta qismi darhol pul mablag‘lariga aylantirilmaydi. Aksincha, mijozlarning depozitlarini qaytarish talabi yoki banklararo to‘lovlar hajmining oshishi tezkor pul

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Demak, likvidlik tahlilida aktivlarning miqdori bilan bir qatorda ularning pulga aylanish tezligi, realizatsiya qilish imkoniyati va majburiyatlarning bajarilish muddatlari ham baholanishi zarur [1; 3].

Buxgalteriya ma’lumotlarini tahlil qilishda quyidagi asosiy guruhlar ajratilishi maqsadga muvofiq:

- pul mablag‘lari va boshqa yuqori likvid aktivlar;
- qisqa muddatda undirilishi kutilayotgan moliyaviy aktivlar;
- uzoq muddatli kreditlar va boshqa kamroq likvid aktivlar;
- talab qilib olinguncha depozitlar va boshqa qisqa muddatli majburiyatlar;
- muddatli depozitlar, banklararo qarzlar va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari;
- balansdan tashqari majburiyatlar, jumladan, kredit liniyalari va kafolatlar bilan bog‘liq ehtimoliy pul chiqimlari.

Mazkur guruhlash likvidlikni faqat bitta ko‘rsatkich asosida emas, balki bank faoliyatining turli yo‘nalishlarini qamrab olgan holda baholash imkonini beradi. Ayniqsa, balansdan tashqari majburiyatlarni hisobga olish muhim, chunki ular dastlab balansda odatiy qarz sifatida ko‘rinmasa ham, muayyan sharoitlarda bankdan qo‘shimcha mablag‘ ajratishni talab qilishi mumkin. Bazel qo‘mitasi ham likvidlikni boshqarishda aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari operatsiyalar bilan bog‘liq pul oqimlarini kompleks baholash zarurligini qayd etadi [1].

Bank likvidligini tahlil qilishda bir-birini to‘ldiruvchi ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim. Ularning ayrimlari bankning joriy to‘lov imkoniyatlarini, boshqalari qisqa muddatli stress sharoitiga chidamliligini, yana bir qismi esa uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Banklarda likvidlik riskini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari, ularning mazmuni va tahliliy ahamiyati

Ko‘rsatkich	Mazmuni	Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari	Tahliliy ahamiyati
Likvid aktivlar ulushi	Likvid aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i	Balansdagi pul mablag‘lari va tegishli likvid aktivlar	Aktivlar tarkibida tezkor foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar ulushini ko‘rsatadi
Qisqa muddatli qoplash darajasi	Likvid aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati	Likvid aktivlar va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha taqsimoti	Joriy to‘lov ehtiyojlarini qoplash imkoniyatini baholaydi
LCR	Yuqori sifatli likvid aktivlarning stress sharoitidagi sof pul chiqimlariga nisbati	Tegishli likvid aktivlar va belgilangan tartibda hisoblangan pul oqimlari	Qisqa muddatli likvidlik barqarorligini baholaydi
NSFR	Mavjud barqaror moliyalashtirishning talab etiladigan barqaror moliyalashtirishga nisbati	Kapital, majburiyatlar va aktivlarning tegishli toifalari	Uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligini baholaydi
Muddatlar tafovuti	Turli davrlardagi kutilayotgan pul tushumlari va chiqimlari o‘rtasidagi farq	Aktiv va majburiyatlarning muddatlar bo‘yicha reyestri	Kelajakda pul mablag‘lari yetishmasligi mumkin bo‘lgan davrlarni aniqlaydi
Moliyalashtirish konsentratsiyasi	Mablag‘larning yirik omonatchilar yoki cheklangan manbalarga bog‘liqligi	Depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha analitik hisob	Ayrim manbalar chiqib ketganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfni ko‘rsatadi

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Jadvaldan ko‘rinadiki, ko‘rsatkichlarning har biri bank likvidligining alohida jihatini yoritadi. Likvid aktivlar ulushi bankning aktivlari tarkibini baholashga yordam bersa, qisqa muddatli qoplash darajasi ushbu aktivlarning yaqin muddatda bajarilishi lozim bo‘lgan majburiyatlarga nisbatan yetarliligini ko‘rsatadi. Biroq bu ikki ko‘rsatkichni hisoblashda likvid aktivlar tarkibini aniq belgilash zarur. Masalan, barcha kreditlarni likvid aktiv sifatida qabul qilish tahlil natijalarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

LCR va NSFR ko‘rsatkichlari esa tegishli xalqaro metodologiyalar asosida hisoblanadi. LCR qisqa muddatli stress sharoitida bankning yuqori sifatli likvid aktivlari sof pul chiqimlarini qoplash imkoniyatini baholaydi. NSFR bankning aktivlari va balansdan tashqari faoliyatini barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash darajasini ko‘rsatadi [3; 4].

Shu sababli ushbu ko‘rsatkichlarni oddiy balans nisbatlari bilan aynan bir xil deb hisoblash mumkin emas: ular maxsus tasniflash, hisoblash va tartibga solish talablariga asoslanadi.

Bank likvidligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o‘rtasidagi tafovutdir. Banklar ko‘pincha qisqa muddatli yoki istalgan vaqtda qaytarilishi mumkin bo‘lgan depozitlarni jalb qilib, uzoq muddatli kreditlar ajratadi. Bunday faoliyat iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashga yordam beradi, lekin mijozlar mablag‘larini bir vaqtda qaytarib olishga intilganda likvidlik bosimini kuchaytirishi mumkin [1].

Buxgalteriya hisobidagi ma’lumotlar asosida aktiv va majburiyatlarni muddatlar bo‘yicha guruhlash orqali ushbu tafovutni aniqlash mumkin. Bunda bir kunlik, bir haftagacha, bir oygacha, uch oygacha, bir yilgacha va undan ortiq muddatlar kesimida kutilayotgan pul tushumlari hamda chiqimlari taqqoslanadi. Bunday taqsimot bankning qaysi davrda ortiqcha likvidlikka ega bo‘lishi, qaysi davrda esa qo‘shimcha mablag‘ talab etilishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, bankning qisqa muddatli majburiyatlari tez sur’atlarda oshib, shu davrda qaytarilishi kutilayotgan kreditlar va boshqa pul tushumlari yetarli bo‘lmasa, likvidlik tafovuti yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda bank qo‘shimcha moliyalashtirish jalb etishga, likvid aktivlarni realizatsiya qilishga yoki kreditlar berish siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lishi ehtimoli bor. Agar aktivlarni shoshilinch sotish katta chegirmalar bilan amalga oshirilsa, bankning moliyaviy natijalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun tahlilda faqat hisobot sanasidagi qoldiqlarni o‘rganish bilan cheklanmasdan, aktivlar va majburiyatlarning kutilayotgan harakatini ham baholash lozim. IFRS 7 talablarida moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha muddatlar tahlili va likvidlik riskini boshqarish usullari haqida axborot ochib berilishi nazarda tutiladi [2].

Mazkur talabni amaliy tahlilga tatbiq etish bankka kelgusidagi to‘lov ehtiyojlarini oldindan ko‘rish va mablag‘lar yetishmovchiligi xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Bank likvidligiga ichki va tashqi omillar birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Ichki omillarga aktivlar tarkibi, kredit portfelining sifati, depozitlarning barqarorligi,

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va pul oqimlarini boshqarish sifati kiradi. Tashqi omillar esa moliyaviy bozorlardagi o‘zgarishlar, foiz stavkalari, iqtisodiy faollik va mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi ma’lumotlari ichki omillarni aniqlashda ayniqsa muhimdir. Masalan, depozitlarning umumiy hajmi oshgan bo‘lsa-da, mablag‘larning katta qismi oz sonli yirik mijozlarga tegishli bo‘lsa, bankning moliyalashtirish barqarorligi kutilgan darajada bo‘lmasligi mumkin. Shu bilan birga, muddati uzaytirilgan yoki qaytarilishi kechikayotgan kreditlarning ko‘payishi rejalashtirilgan pul tushumlarini kamaytirib, likvidlik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli likvidlik tahlili depozitlar hajmi yoki pul mablag‘lari qoldig‘i bilan cheklanmay, aktivlar sifati va mablag‘ manbalarining konsentratsiyasini ham qamrab olishi lozim.

Bazel qo‘mitasi likvidlikni boshqarish bo‘yicha tavsiyalarida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, stress-testlardan foydalanish va favqulodda moliyalashtirish rejasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratadi [1].

Ushbu tavsiyalarni bankning buxgalteriya ma’lumotlari bilan uyg‘unlashtirish orqali turli ssenariylarda likvidlikka bo‘lgan ehtiyojni baholash mumkin. Masalan, yirik omonatchining mablag‘larini qaytarib olishi, kreditlar bo‘yicha tushumlarning kechikishi yoki banklararo moliyalashtirish imkoniyatlarining qisqarishi sharoitida bankning mavjud likvid aktivlari va muqobil moliyalashtirish manbalari qay darajada yetarli ekanligi tekshiriladi.

Bunda stress-test natijalari aniq prognoz sifatida emas, balki ehtimoliy noqulay vaziyatlarga bankning tayyorgarligini baholash vositasi sifatida talqin qilinishi kerak. Natijalar bankning likvidlik zaxirasi, depozit siyosati va favqulodda moliyalashtirish rejalarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, bank likvidligini baholash tizimini takomillashtirish uchun bir necha yo‘nalish muhim hisoblanadi.

Birinchidan, buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini likvidlik boshqaruvi uchun qulay shaklda guruhlash zarur. Bunda pul mablag‘lari, tez realizatsiya qilinadigan aktivlar, kreditlar, depozitlar va boshqa majburiyatlar yagona tahliliy tizimda aks ettirilishi, ularning muddatlari bo‘yicha taqsimoti muntazam yangilanib borilishi lozim. Bu ma’lumotlarni faqat davriy moliyaviy hisobotlardan olish bilan cheklanmasdan, kundalik operatsiyalar asosida kuzatish likvidlikdagi o‘zgarishlarni tezroq aniqlashga yordam beradi.

Ikkinchidan, likvidlik tahlilini buxgalteriya balansi, pul oqimlari prognozi va moliyaviy hisobotlarga izohlar bilan o‘zaro bog‘lash maqsadga muvofiq. Balans joriy moliyaviy holatni, pul oqimlari prognozi kelgusidagi tushum va chiqimlarni, hisobotlarga izohlar esa moliyaviy risklarning xususiyatlarini yoritadi. Ushbu manbalarni birgalikda qo‘llash bankning likvidlik holati to‘g‘risida yanada to‘liq xulosa chiqarish imkonini beradi [2].

Uchinchidan, banklarda likvidlikka doir boshqaruv hisobotlarini avtomatlashtirish lozim. Avtomatlashtirilgan tizim buxgalteriya ma’lumotlarini

tegishli toifalar bo‘yicha birlashtirishi, aktiv va majburiyatlarning muddatlar tafovutini ko‘rsatishi hamda belgilangan ichki chegaralarga yaqinlashgan ko‘rsatkichlar haqida mas’ul xodimlarni ogohlantirishi mumkin. Bunday tizim samarali ishlashi uchun ma’lumotlarning to‘liqligi, hisobvaraqlar tasnifining izchilligi va hisob-kitoblarning tekshirilishi ta’minlanishi zarur.

To‘rtinchidan, qisqa muddatli va uzoq muddatli likvidlikni alohida baholash bilan birga, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham kuzatish kerak. LCR qisqa muddatli stress sharoitiga tayyorgarlikni baholashga, NSFR esa barqaror moliyalashtirish tarkibini tahlil qilishga yordam beradi [3; 4]. Ushbu ko‘rsatkichlarni bankning ichki pul oqimlari tahlili bilan birga qo‘llash likvidlikni boshqarish qarorlarining asoslanganligini oshiradi.

Beshinchidan, bankning likvidlik siyosatida moliyalashtirish manbalarining konsentratsiyasiga e’tibor qaratish lozim. Yirik mijozlar depozitlarining ulushi, qisqa muddatli moliyalashtirishga bog‘liqlik va muqobil manbalardan foydalanish imkoniyati muntazam tahlil qilinishi kerak. Bu yondashuv ayrim moliyalashtirish manbalari qisqargan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan aniqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida likvidlikni tahlil qilish samaradorligi ko‘rsatkichlarning ko‘pligi bilan emas, balki ma’lumotlarning ishonchliligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va boshqaruv qarorlarida qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Shu sababli banklarda likvidlik tahlilini takomillashtirish buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va risklarni boshqarish jarayonlarini uzviy birlashtirishni talab qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish bankning to‘lov qobiliyatini baholash, moliyaviy barqarorligini ta’minlash va likvidlik risklarini kamaytirishning muhim shartidir. Buxgalteriya balansi, moliyaviy hisobotlarga izohlar hamda pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bank aktivlari va majburiyatlarining tarkibi, muddati va o‘zaro muvofiqligini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil davomida likvidlikni faqat bankdagi pul mablag‘lari miqdori bilan baholash yetarli emasligi aniqlandi. Bankning real likvidlik holatini aniqlash uchun aktivlarning pulga aylanish imkoniyati, majburiyatlarning bajarilish muddati, depozitlarning barqarorligi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi ham hisobga olinishi kerak. Ayniqsa, qisqa muddatli depozitlar hisobidan uzoq muddatli kreditlar ajratilishi natijasida yuzaga keladigan muddatlar tafovutini muntazam kuzatish muhim ahamiyatga ega. Bank likvidligini kompleks baholashda oddiy balans ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda LCR va NSFR kabi xalqaro ko‘rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ularni tegishli hisoblash metodologiyasiga muvofiq aniqlash, natijalarni bankning ichki moliyaviy holati bilan bog‘liq holda talqin qilish lozim. Shuningdek, pul oqimlarini prognozlash va stress-testlarni qo‘llash bankning

noqulay iqtisodiy sharoitlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan likvidlik ehtiyojlarini oldindan baholashga yordam beradi.

Tadqiqot asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- buxgalteriya ma’lumotlarini aktivlar va majburiyatlarning muddatlari bo‘yicha tizimli guruhlash;
- likvidlik ko‘rsatkichlarini kundalik operatsiyalar asosida monitoring qilish;
- moliyaviy hisobotlar, pul oqimlari prognozi va risklarni boshqarish ma’lumotlarini yagona tahliliy tizimda birlashtirish;
- likvidlik ko‘rsatkichlari belgilangan ichki chegaralarga yaqinlashganda mas’ul xodimlarni avtomatik ogohlantirish tizimini joriy etish;
- yirik omonatchilarga va qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga bog‘liqlikni muntazam baholash;
- stress-test natijalari asosida favqulodda moliyalashtirish rejalarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan tizimli foydalanish bank likvidligini baholashning aniqligi va tezkorligini oshiradi. Mazkur ma’lumotlarni xalqaro likvidlik standartlari va zamonaviy tahliliy vositalar bilan uyg‘unlashtirish bank resurslaridan samarali foydalanish, to‘lov intizomini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. Basel: Bank for International Settlements, 2008. 44 p.

2. IFRS Foundation. IFRS 7: Financial Instruments: Disclosures. London: IFRS Foundation. Standartning rasmiy elektron nashri.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel Framework: Liquidity Coverage Ratio (LCR). Basel: Bank for International Settlements. LCR10, LCR20 va tegishli bo‘limlar.

4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. Basel: Bank for International Settlements, 2014. 17 p.

5. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. – 241 b.

6. Abdullayeva S.Z., Navruzova K.N. Bank hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.

7. Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.

8. Sodiqova E. Tijorat banklarining likvidligi koeffitsientlar usuli bo‘yicha tahlilini takomillashtirish // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, Special Issue 14. – B. 167–170.

9. Ruziyev B.S. Tijorat banklarida likvidlilik muammolari va uning yechimlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2025. – 13-jild, 5-son. – B. 18–23. DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/7

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**